



JAHONDA ISLOM MOLiyASINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Eshimov Alisher Dusmurodovich

*“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi*

Annotatsiya. *Islom moliyasi sanoati 2021-yilda barqaror ravishda 17 foizga o‘shib, uning jami aktivlari hajmi qariyb 4 trillion AQSh dollariga yetdi. Bu o‘shish sur‘atlari islom banki, sukuk, islom fondlari va boshqa moliya institutlari kabi tarmoqlar faoliyatida yaqqol ko‘rindi. Ta‘kidlash joizki, umumiy aktivlarning 70 foizini tashkil etuvchi islom bank ishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangani, operatsion samaradorlik va kuchli talab tufayli kengaydi. Bunda sof daromad 290% ga oshgan bo‘lsa, mos ravishda, aktivlarning o‘rtacha rentabelligi ham o‘shib bordi. Butun dunyo bo‘ylab to‘liq raqamli islomiy banklarning yuksalishi va LIBORga o‘tish jarayoniga javoban Malayziyaning MYOR-i va Ummonning islomiy pul bozorlari vositalari sanoat innovatsiyasini yoqlab chiqdilar. Islom moliyasini rivojlantirish ko‘rsatkichi (Islamic Finance Development Indicator) orqali barqarorlikni, boshqaruvni, bilim va xabardorlikni oshirishga qaratilgan sa‘y-harakatlar sanoat taraqqiyotiga ishora etib, islom moliyasini doimiy o‘shish va innovatsiyalar uchun yo‘naltiradi.*

Kalit so‘zlar: *islom moliyasi, sanoatning o‘shishi, jami aktivlar, barqarorlik, sektorlar, islom banki, sukuk, islom fondlari.*

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ В МИРЕ

Эшимов Алишер Дусмуродович

*Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»*

Аннотация. *Индустрия исламских финансов устойчиво выросла на 17% в 2021 году, достигнув совокупных активов почти в 4 триллиона долларов США. Рост был очевиден во всех секторах, включая исламский банкинг, сукук, исламские фонды и другие финансовые институты. Примечательно, что исламский банкинг, на который приходится 70% активов, расширился благодаря государственной поддержке, операционной эффективности и высокому спросу. Чистая прибыль выросла на 290%, при этом средняя рентабельность активов также увеличилась. Рост числа полностью цифровых исламских банков во всем мире и реакция на переход на LIBOR, такие как MYOR-i в Малайзии и инструменты исламского денежного рынка в Омане, выдвинули на первый план инновации в отрасли. Усилия по повышению устойчивости, управления, знаний и осведомленности с помощью индикатора развития исламских финансов (IFDI) подчеркивают прогресс отрасли, позиционируя исламские финансы для постоянного роста и инноваций.*

Ключевые слова: *исламские финансы, рост отрасли, совокупные активы, устойчивость, секторы, исламский банкинг, сукук, исламские фонды.*

DEVELOPMENT TRENDS OF ISLAMIC FINANCE WORLDWIDE

Eshimov Alisher DusmurodovichResearch Center "Scientific bases and issues
of economic development Uzbekistan"

Abstract. *The Islamic finance industry resiliently grew by 17% in 2021, reaching nearly US\$4 trillion in total assets. The growth was evident across sectors including Islamic banking, Sukuk, Islamic funds, and other financial institutions. Notably, Islamic banking, comprising 70% of assets, expanded due to government support, operational efficiency, and strong demand. Net income surged by 290%, while average return on assets also increased. The rise of fully digital Islamic banks globally and responses to the LIBOR transition, such as Malaysia's MYOR-i and Oman's Islamic money market instruments, highlighted industry innovation. Efforts to enhance sustainability, governance, knowledge, and awareness through the Islamic Finance Development Indicator (IFDI) underscore industry progress, positioning Islamic finance for continued growth and innovation.*

Key words: *islamic finance, industry growth, total assets, resilience, sectors, Islamic banking, Sukuk, Islamic funds.*

Kirish.

Jadal iqtisodiy o'zgarishlar va moliyaviy innovatsiyalar bilan ajralib turadigan islomiy moliya fenomeni axloqiy mustahkamlik hamda global ahamiyatga ega bo'lgan tizim sifatida yuksaldi. Shariat qonunlari tamoyillariga asoslangan islom moliyasi moliyaviy faoliyatni axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat va barqarorlik bilan bog'laydigan muqobil asosni taqdim etadi. Musulmonlar ko'p bo'lgan davlatlar bilan chegaralangan hududlarda oddiy moliyaviy tashabbus sifatida boshlangan bu jarayon madaniy, diniy va geografik chegaralarni kesib o'tuvchi dinamik va ko'p qirrali global sanoatga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqolada biz islomiy moliyani zamonaviy moliyaning birinchi qatoriga olib chiqqan murakkab va ko'p qirrali rivojlanish tendensiyalarini har tomonlama tadqiq qilishga harakat qilamiz va bu yo'lda an'anaviy bank, investitsiya va iqtisodiy tizim tushunchalarini qayta ko'rib chiqamiz.

O'z mohiyatiga ko'ra, islom moliyasi shunchaki moliyaviy tizim bo'lib qolmay, balki ko'p asrlik islom ta'limotlaridan kelib chiqqan axloqiy e'tiqod va ijtimoiy tamoyillarni o'zida namoyon etuvchi tushunchadir. Islom moliyasining asosini uning shariat qonunlariga asoslanishi, axloqiy xulq-atvor, adolat va ijtimoiy mas'uliyatga rioya qilish kabi harakatlar tashkil etadi. Ushbu axloqiy qadriyatlar foiz (ribo), noaniqlik (g'arar) va qimor (maysir) kabi ekspluatatsion amaliyotlardan voz kechishga yo'naltiradi. Bunda bitimlar o'zida moddiy aktivlar bilan ta'minlanishi va shaffoflik, tenglik va adolat tamoyillari bilan bog'lanishi kerak bo'lgan moliyaviy manzarani taqazo etadi. Islom moliyasi tamoyillari nafaqat uni an'anaviy moliyadan ajratibgina qolmay, balki uning iqtisodiy muvozanatni ta'minlash va shaxslar va jamoalar farovonligini oshirishga qaratilgan umumiy maqsadlarini ham nazarda tutadi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon ilm-fan sohasida islom moliyasi nisbatan yangi yo'nalish ekanligi ta'kidlansada ko'plab tadqiqotlar qilingan. Islom moliyasining eng muhim jihati hisoblangan inqirozlarga bardoshlilikini birinchilardan bo'lib Muhammad Umar Chapra (2009) o'z tadqiqotida to'xtalib o'tgan. Ushbu maqolada moliya tizimda bozor intizomining yetarli emasligi, haddan tashqari kreditlash, yuqori leveraj oxir-oqibat inqirozga olib kelishi ta'kidlanadi. Shuningdek, tavakkalchilikni taqsimlash, birinchi navbatda real tovar va xizmatlarni sotib olish uchun kreditlash hamda qarzni sotishni cheklash, keyin qisqa muddatli savdolar, haddan tashqari noaniqlik (g'arar) va qimor (maysir) intizomni kuchaytirishga yordam berishi mumkinligi ta'kidlangan. Shu bilan moliyaviy beqarorlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bularning barchasi islom moliyasida mujassamlashadi.

Joselin va Labidi (2021) maqolasida butun dunyo bo'yicha islom moliyasida o'sish kuzatilayogani ta'kidlab o'tgan. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozida islom moliyasi insitutlari an'anaviy moliya institutlariga qaraganda sezilarli darajada bardoshlilikini ko'rsatdi. Izlanishda islom banklari, islom investitsion fondlar va islom moliyasida risklarni boshqarishga oid joriy holat tadqiq qilingan. Islom moliyasining yillik 15-20 foiz o'sishiga alohida urg'u berilgan.

Mahalliy olimlardan Abrorov (2023) tomonidan islom moliyasiga oid ko'plab tadqiqotlar

o'tkazilgan bo'lib, unda islom moliyasining umumiy rivojlanish tendensiyalari davrlar, mintaqalar, mamlakatlar va moliyaviy sektorlar kesimida tahlil qilingan. Ilmiy ishlar asosan islomiy qimmatli qog'oz – sukuk tadqiqiga bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlash jarayonida turli ma'lumotlar va sharhlardan foydalanilgan. Ushbu ma'lumotlar islom moliyasi, moliyaviy tendensiyalar, axloqiy moliya, texnologik yutuqlar va boshqa shu kabi yo'nalishlarga asoslanadi. Maqolada olingan ma'lumotlar asosida jahonda islom moliyasi rivojlanishini ekstropolyatsiya qiladi. Statistik ma'lumotlar aniq bo'lishi uchun ishonchli manbalardan olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Pandemiyaning dastlabki yillarida global islomiy moliya sektorining jami aktivlari hajmi 14 foiz o'sishga erishib, barqarorlikni namoyish etdi. Biroq, keyingi yil 17 foizga o'sish orqali pandemiya yillaridagi ko'rsatkichlardan ham yuqorilab, o'zida aktivlarni 4 trillion dollarlik darajaga yetib borganligini namoyish etdi.


Keng tarqalgan emlashlar tufayli virus havfi pasayganligi sababli, iqtisodiyotlar asta-sekin qayta o'sa boshladi va bu o'z navbatida, islom moliya sanoati farovonligining yaxshilanishiga olib keldi.

Umumiy aktivlarining 70 foiziga ega bo'lgan islom moliya sanoatining eng yirik sektori hisoblangan Islom banki kredit yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar yumshatilgani sababli ancha imkoniyat va yengilliklarni qo'lga kiritdi. Albatta, bu ularning sof daromadining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Ushbu o'sishga quyidagi uchta asosiy omil yordam berdi:

1. Ba'zi banklar pandemiyadan zarar ko'rgan sektorlar uchun kengaytirilgan davlat yordamini oldi.
2. Ba'zilar shahobchasi mavjud bo'lmagan banklar va FinTechs bilan hamkorlik kabi chora-tadbirlar orqali operatsion samaradorlikka erishdi;
3. Islom bank xizmatlariga doimiy yuqori talab saqlanib qolganligi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, eng muhim rivojlanish islom moliyasi uncha rivojlanmagan mintaqalarida ro'y berdi. Bu esa yangi tashkil etilgan hududlarning taraqqiy etganligi bilan birga yangi bozorlarning paydo bo'lishini taqazo etdi. Dunyo iqtisodiyotida islom bankchiligining o'sishi bo'yicha Tojikiston (84 %), Burkina-Faso (27 %) va Efiopiya (26 %) boshqa davlatlardan ajralib turdi. Xulosa qilib aytganda, global islom bank sektori 17 foizga o'sib, 2,8 trillion dollarni tashkil etdi.



1-rasm. Islom moliyasi aktivlari (2021-yil, milliard AQSH dollari)³⁶

³⁶ IFDI 2022

Aktivlari bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan sukuk sektori 2021-yilda 14 foizga o'sib 713 milliard dollarga yetgan bo'lsa, yangi emissiyalar 9 foizga oshib, rekord darajadagi 202,1 milliard dollarni tashkil etdi. Besh yil yoki undan ko'proq davom etadigan uzoq muddatli sukukning ko'tarilishi shunchalik diqqatga sazovorki, bu pandemiyadan keyingi uzoq davom etadigan istiqbolga erishishni nazarda tutar edi. Yangi emissiyalarda davlat va kvazi-davlat sukuklar muhim bo'lib qoldi. Bundan tashqari, ular 2021-yilda 5,3 milliard dollarlik miqdor bilan yangi cho'qqini zabt etdi. Saudiya Arabistoni, Indoneziya va Malayziya ushbu segmentda yetakchi o'rinni egalladi, chunki ESG investitsiyalari ko'proq asosiy oqimga aylanishi va GCC talabining oshishi, ayniqsa yashil va barqarorlikka yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun o'sishda davom etishi kutilmoqda edi.

Uchinchi yirik sektor bo'lgan islom fondlari 2021-yilda 238 milliard dollarlik boshqaruv ostidagi aktivlarini yig'ib, o'zida 34 foizlik ta'sirchan o'sishni ko'rsatdi. Garchi global islom fondlari Eron, Saudiya Arabistoni va Malayziyadan kelib chiqqan bo'lsada, jami 81 foizni tashkil etar edi. Shu sababdan ham bu sektorning mavjudligi bank va sukuk bilan solishtirganda kamroq tarqalgan edi. Pul va qimmatli qog'ozlar bozori bu asosiy aktivlar sinflari hisoblanib, fond indeksleri (Exchange-Traded Funds (ETFs)) esa turli mamlakatlardagi mavjudlik darajasi ortib, jadallik kasb etib borayotganidan guvohlik berarar edi qolaversa, sukukga parallel ravishda, 2021-yilda ESG fondlari islom moliyasini rivojlantirishda muhim bosqichni belgilab berdi.

Ta'kidlash joizki, islom jamg'armalarining asosiy egasi bo'lgan Malayziyaning xodimlarni ta'minlash jamg'armasi (Employee Provident Fund (EPF)) 2030-yilgacha ESGga to'liq mos keladigan portfelga ega barqaror investorga o'tish va 2050-yilgacha iqlimga mos keladigan portfelga erishish niyatini e'lon qildi.


Moliyaviy texnologiya firmalari, investitsiya kompaniyalari, moliyalash tashkilotlari, lizing va mikromoliya tashkilotlari, shuningdek, brokerlar va treyderlarni o'z ichiga olgan boshqa islom moliya institutlari (Other Islamic financial institutions (OIFI)) 5 foizga o'sdi va 169 milliard dollarlik aktivlarni jamladi. Aktivlar o'sishining sezilarli darjasi Qozog'iston (44%), Misr (38%) va Maldiv orollari (31%) kabi mamlakatlarda kuzatildi. Ushbu sektorda muhim e'tibor moliyaviy texnologiyalarga (FinTech) qaratilgan bo'lib, xususan Saudiya Arabistoni 2025-yilga kelib o'zining FinTech firmalari sonini 82 tadan 230 tagacha oshirishni maqsad qilgan.

Islomiy moliya sanoatining eng kichik segmenti bo'lgan takaful (islom sug'urtasi) 17%ga o'sdi va buning natijasi o'laroq 2021-yilda 73 milliard dollar mablag'ga ega bo'ldi. Ushbu sektor samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun Fors Ko'rfazi Arab mamlakatlari Hamkorlik Kengashi (Gulf Cooperation Council (GCC)) mamlakatlari doirasida konsolidatsiya tuzdilar. Bundan tashqari, Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim me'yoriy o'zgarishlar Indoneziya va Malayziyada boshqaruvni kuchaytirishini taqazo etar, bu orqali esa Filippindagi yangi bozor ishtirokchilari uchun eshiklar ochilishi mumkin edi.

Pandemiyaning ikkinchi yilidagi qiyinchiliklarga qaramay, islom moliyasi sanoati o'zida barqarorlikni namoyish etdi va sezilarli o'sishga erishdi. Ushbu vaziyat esa uning aktivlarini 2021-yilda qariyb, 4 trillion AQSh dollariga yetkazdi va bu ko'rsatkich 2020-yilda kuzatilgan 14 foizlik o'sishga nisbatan 17 foizga ko'p degani edi. Shu o'rinda, Islom moliya institutlari tomonidan global miqyosda qayd etilgan sof daromad ham uch baravarga oshib, 2020-yildagi 10,5 milliard AQSh dollaridan 2021-yilda 32 milliard AQSh dollarigacha ko'tarildi, bu ayniqsa islom banklari faoliyatining yaxshilanganligini aks ettiradi.

2021-yilda 2020-yildagi notinch iqtisodiy vaziyatlar tiklana boshladi. Biroq, islom moliyasi sektori yana bir qiyin yilga duch keldi, chunki bozorlar va mamlakatlar o'ta ehtiyotkorlik choralari bilan o'z faoliyatini boshlagan va o'z iqtisodlarini qayta jonlantirayotgan edi. Covid-19 virusining ketma-ket to'lqinlari, jumladan Delta va Omikron variantlari rivojlanishga to'sqinlik qilishi global ta'minot zanjirlari va transport faoliyatini buzdi, bu esa yangilangan cheklovlarini o'ylab topishga va xavfsizlik choralari qo'llashga olib keldi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, 2021-yil yanada ijobiy natija bilan yakunlandi. Chunki keng tarqalgan emlashlar mamlakatlardagi pandemiya cheklovlarini yengillashtirish asosiy omillardan bo'ldi.

Bundan tashqari, 2020-yil oxiridagi kelishuvda belgilangan OPEC+ ishlab chiqarish cheklovlari tufayli neftga bo'lgan global talabning o'sishi taklifdan ortib ketdi. Oqibatda, 2021-yil davomida neft narxi ko'tarilishdan to'xtamadi, natijada Brent va West Texas Intermediate (WTI) neftining spot narxlari yil boshida 51,09 va 47,62 AQSh dollariga nisbatan mos ravishda 77,78 va 75,21 AQSh dollarini tashkil etdi. Albatta, bunday holat, neft daromadlariga tayanadigan GCC iqtisodiga nisbatan moliyaviy bosimni yengillashtirgan edi.



2-rasm. Islom banklari aktivlarining o'sish dinamikasi (2015–2021-yillar, milliard AQSH dollari)³⁷

Islom banki 2021-yilda islom moliyasi jami aktivlarining 70 foizi yoki 2,8 trillion AQSh dollarini tashkil qiluvchi asosiy manbaa bo'ldi. GCC global islom banklari aktivlarining 43% ga egalik qilsa, undan keyingi o'ringa 40% li ulush bilan Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (MENA) mintaqasi turar edi. Shuni e'tiborga loyiqliki, ushbu sektor 2021-yilda 2020-yil oxiriga nisbatan 17 foizga kuchli o'sishni boshdan o'tkazgan.

Shuningdek, mamlakatlar orasida Tojikiston (84%), Eron (45%), Burkina-Faso (27%) va Efiopiya (26%) sezilarli o'sish qayd etgan bozorlar sifatida maydonga chiqdi. Bundan tashqari, islom banki sektori yaxshilangan samaradorlikni namoyish etib, sof daromadning 290% ga sezilarli darajada o'sishida va aktivlarning yuqori rentabellik ko'rsatkichida yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu vaziyatni, asosan, 2021-yilda o'tgan yilga nisbatan kredit yo'qotishlari uchun zaxiralarning kamayishi bilan bog'lash mumkin.

Qolaversa, Islom banklari yuqori darajadagi mijozlarga e'tibor qaratish, oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish va pandemiyadan ta'sirlangan tarmoqlarga davlat tomonidan berilgan keng ko'lamli ko'maklardan foydalandilar. Bundan tashqari, bir nechta banklar filialsiz bank ishi va FinTech kompaniyalari bilan strategik hamkorlik kabi strategiyalar orqali operatsion samaradorlikka erishdi.

Islom bankchiligiga talabning o'sib borayotgani rivojlanayotgan tendensiyalar bilan tavsiflanadi va sanoat nuqtai nazaridan yondoshganda, 2026-yilga borib 4,0 trillion AQSh dollari miqdoridagi yuqori daromadga erishish traektoriyasini belgilab berish bilan izohlanmoqda. Islom bankiga bo'lgan talabning yaqqol dalili sifatida an'anaviy banklarning konversiyaga sezilarli siljishlari misol bo'la oladi. Masalan, Pokistondagi Faysal banki 2022-yil oxirigacha an'anaviy bank litsenziyasidan voz kechdi va 2023-yil yanvar oyida to'liq islom banki sifatida o'z faoliyatini boshladi.

Bundan tashqari, konsolidatsiya jarayoni islomiy moliya sektorini mustahkamlashdagi asosiy omil sanaladi. Chunonchi, Kuwait Finance House (KFH) Bahraynning an'anaviy Ahli United Bankini sotib olish maqsadi oldinga muhim qadamdir. Ushbu konsolidatsiyalashayotgan tashkilot dunyoning eng muhim islomiy banklari qatoriga kirmoqda va bir vaqtning o'zida KFHning Bahrayndagi sho'ba korxonasi bilan birlashganidan keyin Bahraynning eng yirik bankiga aylanadi.

Qolaversa, bugungi kunda Quvaytning Fors Ko'rfazi banki ham islom bankiga o'tishni rejalashtirmoqda. Ushbu qaror bankning Al Ahli Bank bilan qo'shilish yo'nalishiga to'g'ri keladi. Buning ilk bosqichi sifatida 2022-yil avgust oyida ikkala tomon imzolagan o'zaro anglashuv memorandumini ilgari surish mumkin. Ushbu vaziyat Quvaytda islomiy bank faoliyatiga bo'lgan talabni davom etayotganini ta'kidlaydi va uning 134 milliard AQSh dollari miqdoridagi islomiy bank aktivlari IFDI baholashlariga ko'ra uni dunyodagi oltinchi yirik sektor sifatida belgilaydi.

³⁷ IFDI 2022

Bugungi kunga kelib konvertatsiya doirasi alohida muassasalardan oshib ketmoqda va butun bank tizimlarini qamrab olishi kuzatilmoqda. 2021-yil avgust oyida Afg'onistonning markaziy banki tolibon boshchiligidagi yangi hukumat paydo bo'lgandan so'ng 2022-yil may oyidan islomiy bank tizimiga o'tish rejalarini e'lon qildi. Xuddi shunday, Pokistonning Federal Shariat sudi hukumatga 2027-yil oxirigacha riboni (foizlarni) taqiqlashni buyurdi, bu mamlakatda islom moliyalashtirishning yanada kengroq o'sishini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamni anglatadi.

2021-yil bo'yicha dunyoning 76 mamlakatida islom banklar faoliyat olib borayotgan hisoblanib, bu ko'rsatkichlar 2022-yil iyul oyida Avstraliyaning Prudensial tartibga solish boshqarmasi tomonidan berilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, bankning raqamli tabiati mamlakat ichidagi texnologiyani yaxshi biladigan musulmon aholisini jalb qilishga qaratilgan strategik harakatdir. Ushbu tendentsiya Germaniya va Buyuk Britaniya kabi musulmon bo'lmagan ko'pchilik mamlakatlarda ham o'xshash raqamli bank ishlarini aks ettiradi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining sobiq a'zosi hisoblangan Quvaytning Boubyan Bank Group tomonidan yaratilgan dunyodagi innovatsion xalqaro raqamli islom banki Nomoni taqdim etdi. Ushbu bank Buyuk Britaniyaning eng qadimgi chakana islom banki sanalib, 2022-yil avgust oyida Al Rayan o'zining oxirgi bank filialini yopdi va mijozlarni raqamli ilovasiga yo'naltirdi. Xuddi shunday, AQSh 2021-yil iyul oyida shariatga mos neobanki Fardows ishga tushirilganiga guvoh bo'ldi.

2023-yilda sanoatning kutilayotgan o'sishi cheklangan islom banki institutlari mavjud bo'lgan bir qancha mamlakatlarda islom bank ishi manzarasini o'zgartirishi kutilmoqda. Ta'kidlash joizki, Filippinning Bangko Sentral Pilipinas (BSP) islom banki bo'linmalarini (IBUs) osonlashtirish rejalarini e'lon qildi va 2022-yil iyun oyida islom banki bo'linmalari joylashgan an'anaviy banklar uchun kapitalizatsiya minimal talablari qayta ko'rib chiqilgan dastlabki sirkulyarni e'lon qildi. Bunga ko'ra 2022-yil avgust oyidagi so'nggi hisobotlarda ikkita an'anaviy bank va markaziy bank o'rtasida IBU tashkil etish bo'yicha munozaralar olib borilganligini ko'rish mumkin.

Rossiya davlati Dumasining Moliya bozori qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu mamlakat Markaziy Osiyoda sanksiyalardan ta'sirlanib o'zining to'rtta davlatida islom banklarini qonuniylashtirishga tayyorlanmoqda ekan. Jumladan, Shimoliy Afrikada, Jazoirda islomiy moliyaviy takliflarga, xususan, uy-joy moliyasiga bo'lgan talab ortib borayotgani ko'plab an'anaviy banklarni islomiy darchalarini ochishga undadi, jumladan Banque National D'Algérie, Banque Extérieure d'Algérie va Banque de Développement Local kabilar shular sirasiga kiradi. Shuningdek, Jazoir islomiy moliya sektori kengayishga tayyor bo'lib, islomiy bank xizmatlarini to'ldirish uchun takaful mahsulotlarini joriy etdi. Shu ma'noda, 2022-yil 1-yanvardan boshlab LIBORning bosqichma-bosqich bekor qilinishi uni xavf-xatarsiz stavkalar (RFR) bilan almashtirishni boshladi.

Bunga javoban Malayziya markaziy banki 2022-yil mart oyida Malayziyaning islomiy bir kechakunduz tarifini (MYOR-i) joriy etish orqali muhim qadam tashladi. Markaziy bankning ushbu harakati tranzaksiyaga asoslangan islomiy benchmark stavkasini joriy qildi, bu orqali MYOR-i Murabaha tovariga asos solingan. Bank Negara Malaysia tomonidan qabul qilingan ushbu tashabbusning maqsadi shuki, mamlakat ichida islomiy moliyaviy mahsulotlarning o'sishini rag'batlantirishdir. Bundan tashqari, hozirda ham MYOR-i asosiga asoslangan qo'shimcha vositalarni ishlab chiqish davom etmoqda.

Ummon mahalliy islom banklari 2022-yilgi Moliyaviy barqarorlik hisobotida qayd etilganidek, parallel rivojlanishda likvidlik talablarini qondirishga qaratilgan islom pul bozori vositalarini joriy etish rejalarini malum qildi. Ushbu tashabbus islom banklarini an'anaviy tamoyillarga moslashtirishga xizmat qiladi.

GCC mintaqasida islom banklari uchun likvidlik mavzusi katta e'tiborni jalb etmoqda. Shuning uchun ham Qatar 2022-yil oktabr oyida o'zining davlat veksellari tizimini yaxshilash maqsadida xazina sukukini joriy qildi. Birlashgan Arab Amirliklari esa 2022-yil may oyida ilk emmissiya qilingan ichki veksellarga xazina sukukini kiritmagan bo'lsa-da, 2022-yil yanvar oyida mamlakat banklari uchun kengroq me'yoriy-huquqiy bazaning bir qismi sifatida islom banklari uchun likvidlik standartlarini joriy qildi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom moliya sanoati pandemiya keltirib chiqargan qiyinchiliklarga qarshi o'zining ajoyib chidamliligini namoyish etdi va uning umumiy aktivlari hajmi 2021-yilda 17 foizga o'sib, 4 trillion AQSh dollariga yaqinlashdi. Sektorning o'sishi uning barcha asosiy tarmoqlarida, jumladan, islom banki, sukuk, islom fondlari va boshqa islom moliya institutlarida yaqqol namoyon

bo'ldi. Ta'kidlash joizki, jami islom moliya aktivlarining 70% ulushiga ega bo'lgan eng yirik sektor bo'lgan islom banki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, operatsion samaradorlik va barqaror talab kabi omillar ta'sirida sezilarli darajada o'sishga erishdi. Ya'ni, sektorning sof daromadi 290% ga payqarli darajada yuksaldi, shu bilan birga uning aktivlari bo'yicha o'rtacha daromadliligi ham oshish bilan namoyon bo'ldi.

Bundan tashqari, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Malayziyada sanoat yuqoridagi tahlillarimiz asosida aytish mumkinki, to'liq raqamli islom banklarining paydo bo'lishi orqali ko'rinarli darajada kengaydi. Filippin va Rossiya kabi bir qancha davlatlar islomiy moliyalashtirish manzarasiga qo'shilishga tayyor hisoblanib, hozirgi kunda islom banki institutlarini joylashtirish bo'yicha choralar ko'rmoqda. LIBORDan risksiz stavkalarga (RFR) o'tish innovatsion talabni keltirib chiqardi, Malayziya tranzaksiyaga asoslangan islomiy benchmark stavkasi sifatida Malayziyaning islomiy bir kecha-kunduz kursini (MYOR-i) joriy qildi. Ummon va Qatar esa mos ravishda islomiy pul bozori vositalari va xazina sukukini joriy etdi. Islom moliyasining rivojlanish ko'rsatkichida (IFDI) o'z aksini topgan barqarorlikni, boshqaruvni, bilim va xabardorlikni oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar sanoatning taraqqiyotiga yanada urg'u beradi. Ushbu fonda sektor rivojlanish va o'zgaruvchan bozor dinamikasiga javob berishda davom etar ekan, islomiy moliya nafaqat o'z sur'atini saqlab qolayotgani, balki global moliyaviy manzarada o'sish va innovatsiyalar uchun yangi yo'llarni ochayotgani ma'lum bo'ladi.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Literature:

Abrorov, S. (2023). JAHON MOLIYA BOZORIDA MUOMALADAGI SUKUKLAR TAHLILI. " Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami., 142-144.

Abrorov, S. (2023). SUKUK BOZORINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 1(1), 13-20.

Chapra, M. U. (2009). The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help Minimise the Severity and Frequency of Such a Crisis in Future. ICR Journal, 1(2), 226-245. <https://doi.org/10.52282/icr.v1i2.745>

Gira, J., & Labidi, C. (2021). Banks, Funds, and risks in islamic finance: Literature & future research avenues. Finance Research Letters, 41, 101815. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101815>

ICD – REFINITIV ISLAMIC FINANCE DEVELOPMENT REPORT 2022: EMBRACING CHANGE

IIFM Sukuk report: A comprehensive study of the global sukuk market. International Islamic Financial Market, August 2022, 11th edition. p202.

Аброров, С. (2023). Banklar faoliyatida xulq-atvor iqtisodiyotining ahamiyati. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 12-20.

Аброров, Сирожиддин, and Нуриддин Қорабоев. "Қимматли қоғозлар бозорида сукукнинг ролига оид илмий-назарий мулоҳазалар ва унинг ўзига хос жиҳатлари." Economics and education 1 (2020): 126-130.

Аброров, Сирожиддин. "СУКУК-ИСЛОМИЙ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР РИВОЖЛАНИШИНИНГ 2021 ЙИЛ ЯКУНЛАРИГА КўРА ТАҲЛИЛИ." Economics and education 23.6 (2022): 258-263.